

DEHQONOBOD TUMANIDA EKOTURIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Safarov I.B. – *Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi*

Norqulova S.I. – *Qarshi davlat universiteti talabasi. O'zbekiston.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Dehqonobod tumanida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari, hududning tabiiy-geografik sharoiti, rekreatsion resurslari hamda turizm salohiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, hududdagi tog'li landshaftlar, biologik xilma-xillik, tabiiy yodgorliklar va ekologik muhitning ekoturizmni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Ekoturizmni rivojlantirish orqali mahalliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ekologik muhofazani kuchaytirish va hududning turistik jozibadorligini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Ekoturizm, Dehqonobod tumani, barqaror rivojlanish, rekreatsion resurslar, tabiiy landshaft, ekologik turizm, biologik xilma-xillik, turizm infratuzilmasi, ekologik marshrutlar, mahalliy iqtisodiyot, turistik salohiyat.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЭКОТУРИЗМА В ДЕХАНАБАДСКОМ РАЙОНЕ

Сафаров И.Б. – *Преподаватель Каршийского государственного университета*

Норкулова С.И. – *Студентка Каршийского государственного университета. Узбекистан.*

Аннотация: В данной статье анализируются перспективы развития экотуризма в районе Дехканабад, природные и географические условия региона, рекреационные ресурсы и туристический потенциал. Также подчеркивается важность горных ландшафтов, биоразнообразия, природных памятников и экологической среды для развития экотуризма. Рассматриваются вопросы диверсификации местной экономики, создания новых рабочих мест, усиления охраны окружающей среды и повышения туристической привлекательности региона за счет развития экотуризма.

Ключевые слова: Экотуризм, район Дехканабад, устойчивое развитие, рекреационные ресурсы, природный ландшафт, экологический туризм, биоразнообразие, туристическая инфраструктура, экологические маршруты, местная экономика, туристический потенциал.

PROSPECTS FOR DEVELOPING ECOTOURISM IN DEKHANABAD DISTRICT

Safarov I.B. – Teacher of Karshi State University

Norqulova S.I. – Student of Karshi State University. Uzbekistan.

Abstract: This article analyzes the prospects for the development of ecotourism in Dehqanabad district, the natural and geographical conditions of the region, recreational resources and tourism potential. It also highlights the importance of the mountainous landscapes, biodiversity, natural monuments and ecological environment in the development of ecotourism. The issues of diversifying the local economy, creating new jobs, strengthening environmental protection and increasing the tourist attractiveness of the region through the development of ecotourism are considered.

Keywords: Ecotourism, Dehqanabad district, sustainable development, recreational resources, natural landscape, ecological tourism, biodiversity, tourism infrastructure, ecological routes, local economy, tourist potential.

Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumani 1926 yili 29 sentabrda tashkil etilgan va 1962 yil G'uzor bilan birlashib 1971 yil qayta tuzilgan. Maydoni 4.0 ming km.kv va aholisi 162.7 ming kishini tashkil etadi. Markazi Qorashina shaharchasi. Dehqonobod tumani o'zining betakror tabiati va baland tog'lari va o'ziga xos iqlimga ega hudud. Dehqonobod tumani Hisor tog' tizmalarining janubiy g'arbiy qismida joylashgani uchun tog' landshaftlari bilan mashhur. Bu hududda piyoda sayohat uchun ideal sharoitga ega. Dehqonobodda ko'plab o'rganilmagan karst g'orlar mavjud. Dunyodagi eng chuqur g'orlardan biri bo'lgan Boybuloq g'ori ham shu hududlarga yaqin joylashgan. Tumandagi mineral suvlar va toza buloqlari sog'lomlashtirish turizmini rivojlantirishga asos bo'ladi. Bu yerda O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kirilgan noyob hayvonlar va dorivor o'simliklar uchraydi. Dehqonobod tumanining tabiiy geografik sharoiti o'ziga xosligi iqlimning keskinligi va tog'li landshaftlari bilan boshqa hududlardan ajralib turadi.

Ekoturizm — bu tabiiy hududlarga mas'uliyatli sayohat qilishni nazarda tutuvchi turizm yo'nalishi bo'lib, uning asosiy maqsadi tabiatni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni asrash hamda mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shishdan iboratdir. Ekoturizm an'anaviy ommaviy turizm

turlaridan farqli ravishda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va inson hamda tabiat o'rtasidagi muvozanatni saqlash tamoyillariga asoslanadi.

Ilmiy adabiyotlarda ekoturizm atamasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab keng qo'llanila boshlagan bo'lib, uning shakllanishiga ekologik muammolar kuchayishi, tabiiy resurslarning kamayishi hamda barqaror rivojlanish konsepsiyasining paydo bo'lishi sabab bo'lgan. Ekoturizm nafaqat dam olish yoki sayohat qilishni, balki tabiatni o'rganish, ekologik madaniyatni oshirish, mahalliy madaniy merosni qadrlash va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ma'rifiy faoliyatni ham o'z ichiga oladi.

Ekoturizmning asosiy xususiyatlaridan biri — turizm faoliyatining tabiatga salbiy ta'sirini minimal darajaga tushirishdir. Bu jarayonda kichik guruhli sayohatlar, ekologik toza transport vositalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, tabiiy landshaftlarning buzilishini oldini olish kabi choralar muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, ekoturizm mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olgan holda rivojlantiriladi, ya'ni mahalliy aholining turizm xizmatlariga jalb etilishi orqali daromad manbalari kengaytiriladi va hududiy iqtisodiy rivojlanishga turtki beriladi.

Geografiya va turizmshunoslik fanlari nuqtai nazaridan ekoturizm tabiiy landshaftlar, qo'riqlanadigan hududlar, milliy bog'lar, tog'li hududlar, cho'l va o'rmon ekotizimlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ekoturizm tabiiy resurslardan barqaror foydalanishni ta'minlash orqali ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ekologik ta'lim va tarbiya berishda, jamiyatda ekologik ongni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi kunda ekoturizm global turizm industriyasining eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ko'plab davlatlar ekologik turizmni rivojlantirish orqali tabiatni muhofaza qilish bilan bir qatorda iqtisodiy foyda olishni maqsad qilgan. Shu sababli ekoturizmni ilmiy asosda rejalashtirish,

hududiy resurslarni baholash, ekologik monitoring olib borish va barqaror boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Biologik xilma-xillikka kelsak juda boy va o'ziga xosdir. Bu hudud Hisor tizmasi tarmoqlarida joylashganligi tufayli bu yerda ham cho'l ham adir ham baland ekotizmalari tutashgan. Tuman florasi 4000 dan ortiq o'simlik turini o'z ichiga egallaydi. Hududning balandlik mintaqalanishi o'simlikning turli tumanligini taminlaydi. Tog'larning asosiy boyligi ko'p asrlik archazorlaridir. Bazi archalarining yoshi 500-1000 yildan oshadi. Hududning yovvoyi tabiat hayvonlarning ko'plab noyob turlari uchun xavfsiz makondir. Tuman hududi biologik xilma xillik bo'yicha 3 ta zonaga bo'linadi bular adir, tog' va yuqori tog' tizmasidir. Muhofaza etiladigan hududlar tumanning bir qismi Hisor davlat qo'riqxonasiga tutashgan.

Tog' daryolari million yillar davomida chuqur daralarni hosil qilgan. Xo'ja Pok ziyoratgohi Xo'jaipok qishlog'i Qo'rg'ontepa mahallasi va Turmaniston Respublikasi bilan chegaradosh hududda joylashgan. Xalq orasida arab istilosidan keyin X-XI asrlarda islom dinini targ'ib qilish uchun yer xo'jalardan biri bo'lgan Xo'jaipok ota nomi bilan bog'liq ramziy ziyoratgoh joylashgan. Bu hududdagi suvning tarkibi o'rganilib mineral moddalarning borligi va ko'plab xastaliklarga davo bo'lishi aniqlangan.

XO'JAIPOK OTA ZIYORATGOHI (Dehqonobod tumani)



Xo'jai pok suvi shamollash bilan bog'liq kasalliklar, bod kasalligi, poleartrit, turli bilan bog'liq kasallik, asab tizimi, umurtqa kasalliklari va boshqa kasallikka davo bo'lganligi sababligi turistlar oqimi to'xtamaydi. Kamol buloq bu To'dachorboq qishlog'idagi shifobaxsh turistik manbadir. Xalq orasida o'zining shifobaxsh suvi bilan mashhur bo'lib, dam olish maskani hisoblanadi. Suv nihoyatda aniq, salqin va istemol uchun yaroqli tabiiy filtirlangan. Xalq tabobatida buloq suvi teri kasalligi, oshqozon ichak faoliyatini yaxshilash va buyrakdagi muammolarni bartaraf etishda foydali. So'nggi yillarda hududning turistik salohiyatini oshirish uchun ushbu maskanlar ilmiy tadqiqotlar va mahalliy sayyohlik marshuritlariga kiritilmoqda.

Konsoy qishlog'idagi Sho'rko'l hududning o'ziga xos tabiiy-shifobaxsh maskanlardan biri. Sho'rko'l nomi bejiz qo'yilmagan – bu yerning tuprog'i va suvi o'ta darajada sho'r. Bu joy tabiatan berk botiqlik bo'lib, u yerda yer osti suvlari yuzaga yaqin joylashgan yoki mavsumiy yog'ingarchilik suvlari to'planib qoladi. Qirg'oqlari va suvi qurigan qismida oppoq tuz qoplami to'planib qoladi. Mahalliy aholi orasida bu kabi sho'r joylarning shifobaxsh xususiyati bo'g'im og'riqlariga davo. Bu yerda eng ko'p qo'llaniladigan usul-issiq suvga ko'milishdir. Bu orqali

revma, artrit va bo'g'imlarga tuz yig'ilishini davolashda yordam beradi. Issiqlik va tuz birgalikda yallig'lantirishni kamaytiradi va qon aylantirishini yaxshilaydi. Yana xususiyatlaridan biri sho'r suv o'lik hujayralarni tozalaydi va terini minerallar bilan boyitadi. Shu jihatlari bilan turistlarni o'ziga jalb qiladi. Dehqonobod tumani nafaqat o'zining tabiat va sanoat, balki qadimiy ziyoratgohlari va muqaddas qadamjolari bilan mashhur. Sarg'ay ota va Dul dul ota ziyoratgohlari tumanning eng tabarruk va sirli maskanlaridan birdir. Sarg'ay ota ziyoratgohi Dehqonobodning eng go'zal va so'lim go'shalaridan biri bo'lgan. Bibishirin yoki Sarchashma qishloqlari yaqinida joylashgan. Bu joy o'zining noyob g'ori va undan chiqib turadigan shifobaxsh buloq suvi bilan mashhur. Ziyoratgoh atrofidagi qizil qoyalar va yashillik uyg'unligi kishiga o'zgacha zavq beradi. Mahalliy aholi Sarg'ay ota bulog'i suvi ko'z kasalliklari va ichki azolar uchun shifobaxsh ekanligiga ishonishadi. Ziyoratchilar bu yerga kelib, buloq suvidan ichishadi va g'ori ichidagi muqaddas joylarni ziyorat qilishadi. Hozirda bu joy ham ziyoratgoh, ham ekoturizm maskani sifatida rivojlanmoqda.

Dul dul ota nomi O'rta Osiyoning ko'plab joylarida uchraydi asosan islom tarixida Hazrat Aliga nisbatan berilgan. Mahalliy afsonaga ko'ra otning tuyuq izlari qolgan deyiladi. Ziyoratchilar aynan toshdagi izlarni ko'rish va niyat qilish uchun tashrif buyuradi. Atrofi qizil tusli tuproq qoyalar bor. Tumanni ekoturizmini rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlar asosan qishloqlarda mehmon uylari tashkil qilish orqali mahalliy aholi bandligini oshirish va barqaror daromad manbaini yaratishga imkon beradi. Keyin dengiz sathidan 1500 metrgacha balandlikda joylashgan hududlar sport turizmi uchun juda qulay hisoblanadi.

Hududning boy hayvonot va o'simlik dunyosi, xususan, dorivor o'simlik va noyob fauna turlari tabiat shinavandalari uchun ilmiy ekologik salohiyatlar uyushtirishga zamin yaratadi. Muammolari esa tog'li hududagi yo'llarning nosozligi, internet va mobil aloqa qamrovining pastligidir. Sayyohlar ko'plab tashrif buyuradigan joylarda chiqindini boshqarish tizimini yo'lga qo'yilmaganligidir. Shu tufayli chiqindilarni qayta ishlashning mobil punktlarini

tashkil etish va tabiatga zarar yetkazmaslik uchun qayta jarimalarni tashkil etish kerak. Masalan tandir go'sht tayyorlash jarayoni yoki qo'y qirqish kabi jarayonlarni master klass sifatida namoyish etish. Mahalliy yoshlar gid bo'lishi masalan Dul dul ota kabi joylarning tarixini so'zlab berish orqali xizmat haqi oladi. Tumanning dorivor giyohlari, tog' asali, anorlarini va boshqa mahsulotni qadoqlab sotishni yo'lga quyish kerak.

Xo'jai Pok ota karst bulog'i, Kamol buloq va Kichik Ura daryolari qirg'oqlarida rekreatsion zonalarini tashkil etish imkoniyati mavjud. Qizilcha va Dul dul ota ziyoratgohini atrofini tabiiy lanshaftini saqlab qolgan holda, hududni „Eko-ziyorat“ markaziga aylantirish mumkin. Tumandagi bo'sh turgan obyektlarni turistik maqsadlarda tadbirkorlarga berish va yo'llarni tamirlash ishlari turizm oqimini oshirishga xizmat qiladi. Turizm qishloqlarida yashovchi aholi uchun maxsus o'quv kurslar tashkil etib, ularga servis va ekologik xavfsizlik qoidalarini qoidalarini o'rgatish kerak. Biz bu ishlardan asosiy maqsad tumanimizni tabiatini maqtanish, mahalliy aholi daromadini oshirish va rivojlantirishdir.

Xulosa: Dehqonobod tumani tabiiy-geografik sharoiti, tog'li hududlari, noyob landshaftlari, biologik xilma-xilligi hamda ekologik toza muhitga egaligi bilan ekoturizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega hududlardan biri hisoblanadi. Hududda mavjud tabiiy resurslar, rekreatsion imkoniyatlar va milliy-madaniy meros obyektlari ekologik turizm yo'nalishlarini tashkil etish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ekoturizmni rivojlantirish orqali hududning turistik jozibadorligini oshirish, mahalliy aholi bandligini ta'minlash, iqtisodiy faollikni kuchaytirish va ekologik muhofaza tadbirlarini samarali amalga oshirish imkoniyati mavjud.

Shu bilan birga, ekoturizmni rivojlantirish jarayonida infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ekologik marshrutlarning tizimli tashkil etilmaganligi, reklama va marketing faoliyatining sustligi hamda malakali mutaxassislar yetishmasligi kabi muammolar ham kuzatiladi. Mazkur omillarni

hisobga olgan holda, ekoturizmni barqaror rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan strategiyalarni ishlab chiqish va kompleks yondashuvni qo'llash zarur hisoblanadi.

Taklif va tavsiyalar

1. Dehqonobod tumanining tabiiy rekreatsion resurslarini kompleks inventarizatsiya qilish hamda ekoturistik salohiyatini ilmiy asosda baholash.
2. Ekologik yo'nalishdagi turistik marshrutlar (tog' sayohatlari, trekking, agroekoturizm, etnoturizm)ni ishlab chiqish va ularni xaritalashtirish.
3. Ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish, jumladan ekologik mehmon uylari, dam olish maskanlari va ekologik axborot markazlarini tashkil etish.
4. Mahalliy aholini ekoturizm faoliyatiga jalb qilish, ularga xizmat ko'rsatish, gidlik va ekologik madaniyat bo'yicha treninglar tashkil etish.
5. Hududning turistik brendini shakllantirish hamda zamonaviy marketing vositalari orqali targ'ibot ishlarini kuchaytirish.
6. Tabiiy hududlarda ekologik monitoringni yo'lga qo'yish va turizm faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'sirini minimallashtirish.
7. Davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish orqali investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion turizm loyihalarini qo'llab-quvvatlash.
8. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Qurbonov P. R., Safarov I. B. Ziyorat turizmining iqtisodiy geografik jihatlarini //Экономика и социум. – 2025. – №. 3-1 (130). – С. 357-362.
2. Usmanova R., Safarov I. O'zbekistonda turizmni shakllantirishning geografik jihatlarini //yangi O'zbekistonda milliy turizm istiqbollari. – 2024. – T. 1. – №. 01.
3. Жумаев Х. Х. Перспективы развития сафари-туризма в Западном туристическом районе (на примере Кашкадарьинской области) //Экономика и социум. – 2023. – №. 3-2 (106). – С. 494-497.
4. Safarov I. B. et al. Ziyorat turizmini rivojlantirishda gat texnologiyalarining o'rni //Экономика и социум. – 2025. – №. 4-1 (131). – С. 502-505.
5. Qurbonov P. R., Qo'ldosheva G. M. Ecological-geographical problems in the residential areas of kashkadarya region //Экономика и социум. – 2025. – №. 5-1 (132). – С. 617-619.

6. Omonullayev O. H. Qashqadaryo viloyatida erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirishning hududiy jihatlari //Экономика и социум. – 2025. – №. 6-2 (133). – С. 653-658.
7. Safarov I. B., Abdishukurova M. A. Ziyorat turizmining geografik jihatlari //Tadqiqotlar. – 2025. – Т. 64. – №. 4. – С. 215-219.
8. Nazarov M. G., Bozorov M. I., Zokirova O. Z. Qashqadaryo viloyatida joylashgan buloqlarning shakllanishi hamda ularning mihofaza qilish masalalari //Экономика и социум. – 2025. – №. 3-1 (130). – С. 277-282.